

SHARQ MASH'ALI



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
ilmiy-uslubiy, ma'rifiy jurnali

3
2024



Ilmiy-uslubiy,
ma'naviy-ma'rifiy jurnal.
Ta'sischi:
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
1992-yildan chiqa boshlagan
Jumal O'zbekiston Respublikasi
Toshkent shahar matbuot va axborot
boshqarmasi ro'yxatidan qayta o'tgan
(№ 02-0055 26-sentyabr 2014-yil)

Bosh muharrir:

G. RIXSIYEVA (prof., f.f.n.)

Tahrir hay'ati:

D. SAYFULLAYEV (prof., t.f.d.) (bosh
muharrir o'rinbosari)

X. ALIMOVA (prof., f.f.d.) (mas'ul kotib)

A. MANNONOV (prof., f.f.d.)

Q. SODIQOV (prof., f.f.d.)

R. XODJAYEVA (prof., f.f.d.)

SH. SHOMUSAROV (prof., f.f.d.)

Q. OMONOV (prof., f.f.d.)

U. MUHIBOVA (prof., f.f.d.)

D. MUHIDDINOVA (f.f.d.)

X. HAMIDOV (f.f. bo'yicha PhD)

B. ABDUHALIMOV (prof., t.f.d.)

A. XODJAYEV (prof., f.f.d.)

M. IS'HOQOV (prof., t.f.d.)

X. FAYZIYEV (dos., t.f.n.)

D.XODJIMURATOVA (t.f. bo'yicha PhD)

SH. YOVQOCHEV (prof., s.f.d.)

N. ABDULLAYEV (dos., s.f.d.)

A. VAHOBOV (prof., i.f.d.)

R. ABDULLAYEV (prof., i.f.d.)

I. MAVLANOV (prof., i.f.d.)

R. BAHODIROV (prof., fal.f.d.)

E. IZZETOVA (prof., fal.f.d.)

A. SHONAZAROVA (AQSHning Kolumbiya
univ. prof.)

G. GLIZON (AQSHning New Mexico univ.
prof.)

ONO MASAKI (Yaponiyaning Tsukuba
univ. prof.)

LI DJI IN (Koreya Respublikasining Xankuk
chet tillar univ. prof.)

V. MESAMED (Isroilning Quddus univ. prof.)

A. GURER (Turkiyaning Anqara univ. prof.)

A. VOROBYEV (Rossiya Fanlar akademiyasi,
Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi)

G. AVDA (Misr Arab Respublikasining Xelvon
univ. prof.)

A. TOHIR (Misr Arab Respublikasining "Al-
Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori)

S. KURAYM (f.f. bo'yicha PhD)

H. BAYDEMIR (Turkiyaning Otaturk univ.
prof.)

SHARQ MASH'ALI

ISSN 2010-9709

MUNDARIJA № 3, 2024-yil

Adabiyotshunoslik

Ходжаева Р. Коранические образы и мотивы в макамах великого мыслителя из Хорезма Махмуда аз-Замахшари.....	3
Ахмедова III. Образ песчаного корабля пустыни - верблюда в рассказах Сулеймана Аш-Шати	10
Gafurova X. Yaponiyada zamonaviy fanda uta-monogatari adabiy janrini o'rganish	15
Qoraboyev S. Pashtu adabiyotida tarixiy roman va uning janri masalasi	23
Qosimova G. Yomixon janri rivojida Ueda Akinari merosi.....	30
Qalandarov M., Xushnazarova G. Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy "Lub ul bob-masnaviy" hamda Odina Eshonning "Miftoh ul-asror" asarlarning ilmga oid qisimlarining tahlili.....	41
Jabborov Sh. Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asarida "tabaqa" va uning o'ziga xos xususiyatlari	48

Tilshunoslik

Abduvaliyeva O'. Pashtu tilidagi kopulyativ frazologik birliklar.....	55
Muxammadjonov A. Abu Hilol al-Askariyning الفروق اللغوية "Al-Furūq al-lughawiyyah" asarining struktur va semantik tahlili	62
Saidov U. Konsept: tushunchasi, tarixi va masalaning diaxronik qo'yilishi.....	69
Baylarova L. Methodology based on the cultural model of linguistic and cultural texts in teaching German. (second year language University)	76
Giyazova B. Ma'budalar - Sarasvati, Lakshmi va durga bilan bog'liq atamalarining sinonimik (jihatdan) tahlili	86
Rasulova K. "Navoiy" romani turkcha tarjimalarida frazeologizmlarning berilishi.....	95

Nashrga tayyorlovchilar: J. ISMOILOV, A. ZIYODOV L. HAMDAMZODA, H. SULAYMONOVA Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya va tarix yo'nalishi bo'yicha ilmiy maqolalar chop etiladigan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Jurnal original-maket asos'ida bosildi. Sharq mash'ali, 2024 yil 3-son. e-mail: nashriyot@tsuos.uz web-site: www.tsuos.uz Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.	Tarix	Madraimov A., Madraimov A. Tarixchi G'iyosiddin Xondamirning Boburshunoslikka qo'shgan katta hisssasi 105 Abdullayev U. Amir Temur va Yildirim Boyazid o'rtasidagi muhoraba avvalida Yaqin Sharqdagi xalqaro vaziyat 115 To'rayev L., Qosimi H. "Boburning tojikiston o'lkalaridan xotiralari, bu zaminda qoldirgan yodgor izlari" 123 Karimov N. "Navodir al-usul" asarida islom psixologiyasining yoritilishi 132 Hasan N. Ahmad Yassaviyning turkiy xalqlar tarixida tutgan o'rni haqida 139 Mirzoraximov A. Kitobat va uning rivojlanish bosqichlari 146 Alizade O. Tamgalarla Türk Rakamlarının Oluşturulması..... 153
	Tashqi siyosat	Niyazova N. Siyosatshunoslik fanini o'qitishdagi asosiy masalalar 162 Sadibaqosev H. Markaziy osiyo davlatlarining xavfsizlik borasida AQSH va xitoy bilan hamkorligi 170 Rizayev A. Saudiya Arabistonining xalqaro- siyosiy identikligi 178 Аллахвердиева Л. Развитие магистерского образования в Азербайджанев процессе интеграции в европейское высшее образовательное пространство..... 186

SIYOSATSHUNOSLIK FANINI O'QITISHDAGI ASOSIY MASALALAR

NIYAZOVA NARGIZA

Katta o'qituvchi, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), TDSHU

Annotatsiya. Maqolada siyosatshunoslikning fan sifatida paydo bo'lishi, rivojlanishi, uning dolzarb masalalari aks ettirilgan. Shuningdek, maqolada siyosatshunoslik fanini rivojlantirishdagi katta tajribaga ega bo'lgan xorijlik va mahalliy professorlar fikri keltirilgan. Qolaversa, O'zbekistonda siyosatshunoslik fanining rivojlanishi davrida to'qnash kelgan muammolar, bu muammolarni yengib o'tishdagi say'i harakatlar va fanning rivojlanishi istiqbollari haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: *politologiya, siyosiy ta'limotlar, siyosiy sotsiologiya, siyosiy antropologiya, siyosiy psixologiya, siyosiy taxlil va prognozlash, ijtimoiy siyosat, siyosiy menejment, qiyosiy siyosatshunoslik, xalqaro munosabatlar nazariyasi*

Abstract. *The article discusses the emergence and development of political science as an academic discipline and highlights its pressing issues. It also presents the perspectives of foreign and local professors with extensive experience in advancing the field of political science. Furthermore, the article reflects on the challenges encountered during the development of political science in Uzbekistan, the efforts made to overcome these obstacles, and the future prospects for the field's growth.*

Keywords: *political science, political theories, political sociology, political anthropology, political psychology, political analysis and forecasting, social policy, political management, comparative political science, theory of international relations.*

Translation to Russian:

Аннотация. *В статье рассматриваются возникновение и развитие политологии как научной дисциплины, а также её актуальные проблемы. Приведены мнения зарубежных и местных профессоров, обладающих большим опытом в развитии политологии. Кроме того, в статье обсуждаются проблемы, с которыми сталкивалась политология в Узбекистане, усилия по их преодолению и перспективы развития данной науки.*

Ключевые слова: *политология, политические учения, политическая социология, политическая антропология, политическая психология, политический анализ и прогнозирование, социальная политика, политический менеджмент, сравнительная политология, теория международных отношений.*

Siyosatshunoslik, shubhasiz, dunyodagi eng mashhur fanlardan biridir. Bugungi kundagi reallik shuni qo'rsatdiki, ushbu fanni o'rganish fuqarolarning ijtimoiylashuviga, ularda qonun ustuvorligiga hurmatni shakllantirishga, umuminsoniy qadriyatlarga yo'naltirilgan barqaror siyosiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi nuqtayi nazaridan juda muhim hisoblanadi. Shuningdek, siyosat fani



demokratik mentalitet va, siyosiy bag'rikenglikni rivojlantirishga, ijtimoiy mojarolarda muros va kelishuvga tayyorlik, o'z manfaatlarini qonunlar doirasida ifoda etish va himoya qilish, mojarolarning oldini olish yoki nisbatan og'riqsiz hal qilish kabi fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi [1].

Siyosatshunoslik mustaqil fan sifatida 19-asrning 2-yarmida shakllandi, 1857-yilda Kolumbiya universitetida (AQSH) tarix va siyosatshunoslik kafedrası tashkil etildi. Bu vaqtda Yevropada fuqarolarni siyosatga faol jalb qilish va ularning siyosiy madaniyatini oshirish tendensiyasi boshlangan edi va bu keyinchalik yaxshi natijalar berdi. Turbulent siyosiy voqelik siyosatni nazariy tushunishni va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni talab qildi, siyosatshunoslik soasidagi bilimlariga talab ortdi. 19-asrning 90-yillariga kelib Amerika va Yevropa kollej va universitetlarida siyosatshunoslik yo'nalishlari va kafedralari tashkil qilindi [2].

19-20-asrlar oxirida siyosatshunoslik sohasida mustaqil tadqiqotlar paydo bo'la boshladi. Bu vaqtda siyosiy bilimlar /siyosatshunoslik falsafa va huquqdan ajralib chiqdi. Keyinchalik esa yetakchi davlatlar (AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya va boshqalar) siyosatshunoslari milliy birlashmalarga birlashdilar va 1949-yilda YUNESKO huzurida Siyosiy fanlar xalqaro assotsiatsiyasi (IPSA) tashkil etildi [2].

20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab siyosatshunoslik tadqiqot usullari jihatidan ham, fanlar orasida ham yakuniy mustaqillikka erishdi. Yo'nalishlar tizimi va ilmiy maktablar paydo bo'ldi. Bugungi kunda o'rganishning mavzu yo'nalishlari tobora aniq qilib belgilab qo'yilmoqda (tashqi va ichki siyosat, siyosiy yetakchilik, hokimiyat, siyosiy jarayonlar va h.k.).

50-60-yillarda G'arbiy Yevropa davlatlarining ko'plab universitetlarida siyosiy fanlar fakultetlari va kafedralari tashkil etilda. 60-yillarning oxiri va 70-yillarning boshlarida bu jarayon Lotin Amerikasi, Osiyo va Afrika mamlakatlarini qamrab oldi. 60-70-yillarda Germaniya, Ispaniya, Fransiya, keyinchalik SSSRda siyosiy xaqidagi yangi fan - siyosatshunoslik paydo bo'ldi.

Bugungi kunda dunyoning aksariyat mamlakatlarida, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda siyosatshunoslik fan sifatida eng nufuzli va katta talabga ega, shuningdek, olib borilayotgan tadqiqotlar, mutaxassislar, o'qituvchilar va talabalar soni bo'yicha keng tarqalgan fan hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar bo'yicha bugungi kunda AQSH yetakchilik qilmoqda.

O'zbekistonda siyosatshunoslik nisbatan yosh fan bo'lib, mustaqillikning ilk yillaridanoq akademik fan sifatida joriy etilgan. Istiklolning dastlabki yillarida mamlakatimiz o'quv yurtlari dasturlariga bir qator siyosiy fanlar kiritildi va o'qitila boshlandi. O'zbekistonda 1993-yildan siyosatshunos kadrlar tayyorlash yulga qo'yildi. O'sha yillarda ushbu kasbga davlatning demokratik rivojlanishi uchun kerakli bo'lgan muxim kasb deya qaralgan. O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetlardagi siyosatshunoslik fakultetlari faoliyat yuritib, har yili yuzlab kadrlar tayyorlangan. Ilmiy kengashlar faoliyati yo'lga qo'yilib, bir qator o'zbek siyosatshunos olimlari "Siyosiy Fanlar Xalkaro Assotsiatsiyasi" (IPSA)ga xam a'zo bo'lishgan.

Shu bilan bir qatorda shuni ham qayd etish joizki, O'zbekistonda siyosatshunoslik fani qator sinovlardan o'tib keldi: 2010-yilda siyosatshunoslik fani o'quv dasturlaridan olib tashlanib, oliy o'quv yurtlari siyosatshunos mutaxassislar tayyorlashni to'xtatadi. 2013-yilda bitiruvchi tayyorlaydigan siyosatshunoslik fakultetlari va kafedralari yopildi, dissertatsiyalar himoyasi bo'yicha kengashlar faoliyati to'xtatildi. Bu kabi islohotlarga izoh sifatida siyosatshunoslik fanining predmeti boshqa fanlarda xam takrorlanayotganligi, siyosatshunoslikda ilmiy metodologiya yo'qligi va nihoyat, ilmiy adabiyot G'arbda keng tarqalgan nazariyalar to'g'risida ko'proq malumot berib, o'zimizga hos taraqqiyot yo'limiz, "O'zbek modeli"ning atroflicha tushuntirilmayotganligi, siyosatshunoslikning mazmuni va tarkibi zamonaviy talabga javob bermayotganligi haqida xulosaga kelinganligi aytili.



2015-yilda siyosatshunoslik ilmiy fan maqomidan butunlay mahrum qilindi va universitetlar kurslaridan umuman olib tashlandi.

Professor A.A.Fayzullayev 2013-yildan buyon fanni himoya qilish maqsadida bir necha bor soʻzga chiqib, murojatlarda siyosatshunoslik sohasida yetuk kadrlarga ehtiyoj borligini va kattaligi taʼkidladi. Misol tariqasida u dunyo yetakchilari, davlat va hukumat rahbarlari, taniqli parlament aʼzolari va diplomatlarning aksariyat qismi siyosatshunoslikning oʻzini yoki siyosatshunoslikni boshqa fanlar bilan birgalikda universitetlarda oʻqigan kishilar ekanligi haqidagi faktlarni keltirdi [3].

Fanning tiklanishi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019-yil 29-yanvardagi “Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” qarori qabul qilinganidan keyin amalga oshirildi [4].

Bu borada 2019-yil 29-yanvarda qabul qilingan “Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4139-sonli Prezident qarori muhim ahamiyatga ega boʻldi. Ushbu qarorni qabul qilishdan maqsad:

- siyosiy fanlar sohasida kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish;
- fuqarolik jamiyati, milliy davlatchilikning siyosiy asoslari shakllanishi va rivojlantirish sohasida kompleks tizimli tadqiqotlar olib borish;
- globallashuv sharoitida davlatning ichki va tashqi siyosatini shakllantirish va amalga oshirish;
- shu asosda ijtimoiy-siyosiy islohotlarni chuqurlashtirish boʻyicha ilmiy asoslangan tavsiyalar va dasturlarni ishlab chiqish kabi masalalardir.

Qarorga muvofiq Siyosatshunoslik kafedrası faoliyatining asosiy yoʻnalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- ilgʻor xorijiy tajriba hamda zamonaviy taʼlim texnologiyalaridan foydalanish asosida siyosatshunoslik fanlari sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni taʼminlash;
- jahon siyosatidagi eng yangi trend va yoʻnalishlarni hisobga olgan holda xalqaro darajadagi ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash;
- “Siyosatshunoslik” fani boʻyicha oʻquv jarayonini mazmun jihatdan takomillashtirish maqsadida yangi avlod darsliklari, oʻquv qoʻllanmalari, oʻquv dasturlari va rejalarini tayyorlash;
- tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatda Oʻzbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini ilgari surish sohasida Tashqi ishlar vazirligi, boshqa vazirlik va idoralar oldida turgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda taʼlim berish, fundamental va amaliy tadqiqotlarning yuqori darajasini taʼminlash;
- siyosatshunoslik, xalqaro munosabatlar va jahon siyosati, xalqaro iqtisodiyot va menejment, xalqaro huquq sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, ularning natijalarini oʻquv jarayoniga hamda tegishli oʻquv rejaları va dasturlariga tatbiq etish [4].

Oʻzbekistonning zamonaviy tashqi siyosat va diplomatik faoliyatida Sharq mamlakatlari asosiy ustuvor yoʻnalish ekanligini eʼtiborga olgan holda qayd etish mumkinki, bugungi kunda yetuk va professional sharqshunossiyosatshunos kadrlarga boʻlgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ushbu jarayonlarda Sharq mamlakatlari siyosati va xalqaro munosabatlarini chuqur tahlil qilish, ularning tajribasi va salohiyatini ilmiy jihatdan toʻgʻri baholash hamda xolisona xulosa chiqarish singari masalalar sharqshunos-siyosatshunoslar oldida turgan dolzarb vazifalardandir. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-aprelda qabul qilgan “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorida ham Sharq mamlakatlari siyosati, ularning xalqaro maydondagi nufuzi, Sharq zamonaviy



siyosiy jarayonlarini ilmiy jihatdan o'rganish, mazkur yo'nalishda ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash hamdamahalliy va xorijiy hamkorlar bilan birgalikda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish masalalari alohida qayd etiladi [5].

Fan borasida gapirganda shularni ta'kidlash joizki, bugungi rivojlanish bosqichida siyosatshunoslik o'zaro bog'liq bo'lgan bir qancha fanlardan iborat. Ushbu fanlarni uchta asosiy toifaga bo'lish mumkin: (1) asosiy, (2) fanlararo va (3) siyosiy ta'lim va tadqiqotning amaliy yo'nalishlari. Siyosatshunoslikning asosiy fanlariga quyidagilar kiradi: siyosiy nazariya (ba'zi manbalarda siyosiy falsafa deb ataladi), xalqaro munosabatlar nazariyasi va qiyosiy siyosatshunoslik [6]. Siyosatshunoslikning fanlararo fanlari siyosiy sotsiologiya, siyosiy iqtisod, siyosiy psixologiya va siyosiy antropologiya kabi fan sohalarini o'z ichiga oladi. Siyosatshunoslikning amaliy fanlariga ijtimoiy siyosat, siyosiy tahlil va prognozlash, siyosiy menejment, siyosiy marketing kabi fanlar kiradi.

Siyosatshunoslik fanlarining zamonaviy bo'linishi		
Asosiy fanlar	Siyosiy nazariya	Siyosiy amaliyot va institutlarni tavsiflash, tushunish va baholash uchun ishlatiladigan adolat, hokimiyat va demokratiya kabi siyosiy tushunchalar va qadriyatlarni o'rganadi.
	Xalqaro munosabatlar nazariyasi	Xalqaro munosabatlarni nazariy nuqtayi nazardan o'rganadi. Xalqaro munosabatlarning uchta asosiy nazariyalari - realizm, liberalizm va konstruktivizm.
Fanlararo sohalar	Qiyosiy siyosatshunoslik	Siyosatshunoslikning sohasi bo'lib, davlatlar ichki siyosatini qiyosiy usul yoki boshqa empirik usullardan foydalanib o'rganish bilan tavsiflanadi.
	Siyosiy sotsiologiya	Siyosiy hodisalarning ijtimoiy asoslarini davlat va fuqarolik jamiyatidan tortib oilagacha bo'lgan darajasini fuqarolik jamiyati, ijtimoiy harakatlar va ijtimoiy xokimiyat manbalari kabi mavzular nuqtayi nazaridan o'rganadi.
	Siyosiy iqtisodiyot	Siyosat va iqtisod o'rtasidagi munosabatni, savdo va ishlab chiqarish kabi iqtisodiy jarayonlarda siyosatning rolini hamda jamiyatda iqtisodiy resurslarning taqsimlanishini o'rganadi.
	Siyosiy psixologiya	Siyosat, siyosatchilar va siyosiy xulq-atvorni psixologik nuqtayi nazardan o'rganishga bag'ishlangan soha. Ijtimoiy psixologiyaning kichik bo'limi sifatida qaraladi.
	Siyosiy antropologiya	Siyosiy antropologiyaning o'zagi siyosatni keng ko'lamli tarixiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlarda qiyosiy o'rganishdir.
Amaliy fanlar	Ijtimoiy siyosat	Davlat siyosatini hududdagi muayyan ijtimoiy muammolarga javoban, odatda hukumat tomonidan yaratilgan yoki qabul qilinadigan harakat yo'nalishi sifatida ko'rib chiqadi.
	Siyosiy tahlil va prognozlash	Siyosat, dasturlar va qonun loyihalarini o'rganish va baholash uchun davlat yoki hukumat xizmatchilari

		tomonidan qo'llaniladigan usullar va yondashuvlar majmui.
	Siyosiy menejment	Siyosiy kampaniyani boshqarish, siyosiy konsultatsiya, lobbizm, saylov so'rovi va boshqalarni o'z ichiga olgan faoliyat sohasi.

Bugun siyosatshunoslik fanini talabalarga yetkazishda ma'lum bir tizimga tayanganiladi. Fanni o'qitish tegishli ixtisoslik talabalariga fanning kelib chiqishi, hususiyatlari, metodlari, paradigmalari va funksiyalari haqida batafsil ma'lumot va chuqur bilim berishdan boshlanadi. Fanga kirishda siyosatshunoslik faning siyosiy fanlar tizimida tutgan o'rnini, fanning qonuniyatlari va kategoriyalari, O'zbekistonda siyosatshunoslikning fan sifatida rivojlanishi haqida ma'lumot beriladi. Keyingi bosqichda siyosiy nazariyalar tarixi o'rganiladi, unda antik davr, o'rta asrlar, yangi davr faylasuflarining g'oyalari, shuningdek klassik va zamonaviy deb tasniflangan nazariya va tushunchalar bilan tanishtiriladi. Shundan so'ng fan doirasidagi asosiy mavzular bilan tanishtirish boshlanadi. Asosiy mavzular ichida siyosiy jarayonlar mavzusi keng o'ritiladi, unda siyosiy jarayonlar tushunchasi, mohiyati, o'ziga hos xususiyatlari, siyosiy jarayonlar strukturasi o'rganiladi, jarayonning har bir bosqichi sahnalashtiriladi va tahlil qilinadi, inqilob, uning belgilariga, shuningdek, siyosiy ishtirok masalalariga oid ma'lumotlar o'rganiladi. Fanni o'zlashtirish siyosiy tizimlar mavzusini o'rganish bilan davom etadi. Unda siyosiy tizim tushunchasi, uning mohiyati, funksiyalari, tasnifi va siyosiy tizimlarning faoliyat ko'rsatish modellari ko'rib chiqiladi. Hokimiyat va hokimiyat munosabatlari bilan bog'liq masalalar fanning asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Hokimiyat tushunchasi va uning mohiyati, siyosiy hokimiyatning tuzilishi va ko'rinishlari, siyosiy rejimlar tasnifi, siyosiy hokimiyatning legitimligi va turlari, fuqarolik jamiyati masalalari chuqur o'rganiladi. Fanda siyosiy ong, jamoatchilik fikri, siyosiy mafkuralar, siyosiy madaniyat va ijtimoiylashuv, ularning darajalari va shakllanish bosqichlari masalalari alohida o'rin tutadi. Davlatni asosiy siyosiy institut sifatida o'rganish, uning xususiyatlari, shuningdek, davlatchilik nazariyalari va tushunchalari, boshqaruv shakllari, davlat va hududiy tuzilishini o'rganish kabilar fanda markaziy masala hisoblanadi. Ijtimoiy guruhlarining siyosat subyekti sifatidagi, ijtimoiy tabaqalanish va ijtimoiy harakatchanlik masalasi o'rganiladi. Modernizatsiya masalasini o'rganishda modernizatsiya nazariyalari va inqirozlariga e'tibor qaratiladi. Fanda mojarolar va ularning mohiyatini o'rganishga katta e'tibor qaratiladi, mojarolar siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarning asosiy manbai nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Shu bilan bir qatorda fan doirasida bir biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan siyosiy ong va jamoat fikri, siyosiy mafkura, siyosiy madaniyat mavzulari atroflicha yoritiladi. Unda siyosiy mafkura davlat uchun muhim vosita ekani tushuntiriladi. Shuningdek, dasturda millat masalasi, millatlararo munosabatlar tendensiyalari, millatlararo nizolar muammosi, nizolarning mohiyati, nizolarni tartibga solish usullari, mojaro ishtirokchilari va ularning vazifalarini o'rganish ham alohida o'rin tutadi. Fan demokratiya nazariyalari, saylov jarayonlari, partiyalar va partiyaviy tizim, yetakchilik masalalari va uning tasnifi, elitalar va ularni rekrut qilish tizimlarini o'rganishni ham o'z ichiga oladi.

Fanni o'zlashtirib, tahlil qilib, tinglovchida siyosat va uning tarkibiy qismlari haqida aniq tushuncha shakllanadi, uning siyosat haqidagi barcha bilimlari "oddiy bilish" darajasidan "g'oyaviy va nazariy bilish" darajasiga o'tadi, ya'ni professional darajaga. Ushbu fan doirasida olingan bilimlar siyosiy madaniyat va siyosiy faollik darajasini sezilarli darajada oshiradi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, jamiyat farovonligi va demokratlashuvi aynan fuqarolarning yuksak siyosiy madaniyati va siyosiy faolligiga bog'liq.



Siyosatshunoslik ko'p qirrali bo'lib, u o'z mamlakati va dunyoda kechayotgan siyosiy jarayonlarni tahlil qila oladigan mutaxassis tayyorlash omilidir. Zamonaviy siyosatshunos uchun fundamental ta'lim, intellektuallik va bir necha fanlar - tarihdan to xalqaro munosabatlargacha bo'lgan fanlarni chuqur o'zlashtirishni taqozo etadi. Agar xorijiy tajribaga e'tibor bersak, hozirgi davrda AQSH universitetlari 634 ta, Buyuk Britaniya 324 ta, Avstraliya 34 ta, Shvetsiya 15 ta bakalavrlik dasturini taklif qilmoqda. AQSHning barcha universitetlarida siyosatshunoslik fani o'qitiladi [3].

Siyosatshunoslik kasbi 3 ta yo'nalishda amal qiladi: jamiyatdagi nodavlat uyushmalar tashkilotchisi; siyosatshunos-olim; siyosiy hayot amaliyotchisi. Birinchi yunalishda siyosatshunos jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalari eksperti; ikkinchi yo'nalishda siyosatshunos-olim siyosiy fanlar sohasida maxsus sertifikatlangan, jamiyatning siyosiy hayotini atroflicha tahlil qila oladigan mutaxassis; uchinchi yo'nalishda siyosatshunos-maslahatchi (konsultant), siyosiy jurnalist, ekspert va siyosatshunos vazifalarini bajaradi. Aynan mana shu toifadagi siyosatshunoslar saylovlarni uyushtiradi, siyosiy liderlar va siyosiy partiyalar imijini yaratadi.

Siyosatshunosning mutaxassis sifatidagi faoliyati moxiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- turli siyosiy jarayonlar va hodisalarni tadqiq etish;
- siyosat va siyosiy jarayonlarning iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligini tahlil etish;
- siyosiy hodisalarning jamiyat uchun ahamiyati darajasini aniqlash;
- siyosiy tashkilotlar (davlat, siyosiy partiyalar va boshqalar) faoliyatini tahlil qilish;
- siyosiy xulq-atvor mexanizmlarini rivojlantirish;
- siyosiy texnologiyalar bilan ishlash;
- siyosiy prognozlar ishlab chikish.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, ohirgi yarim asr ichida siyosiy faoliyat bilan bogliq bir kator yangi kasblar shakllandi:

- siyosiy partiyalar xodimlari va ekspertlari;
- jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis (PR -menejer);
- siyosiy strateg;
- siyosiy jurnalist,
- davlat xizmati xodimi;
- diplomat va xalsaro nodavlat tashkilotlar xodimi;
- siyosiy ekspert,
- siyosiy konsultant;
- siyosiy konsalting eksperti;
- siyosiy texnolog;
- spichrayter;
- siyosiy tahlilchi;
- siyosiy tadqiqotchi;
- siyosiy fanlar o'qituvchisi;
- siyosiy psixolog;
- siyosatshunos-imijmeyker;
- mahalliy boshqaruv organlari xizmatchisi;
- nodavlat notijorat tashkilotlar xizmatchisi;
- axborot-tahlil idoralari xizmatchisi;
- siyosiy menejer;



➤ siyosiy marketolog.

Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, siyosatshunoslik dastlab siyosiy fikr, davlat boshqaruvi va nazariy qarashlar sifatida shakllangan bo'lsa, hozirgi davrga kelib universal fanga aylandi: u jamiyat hayotining barcha jabhalarida o'zaro insoniy munosabatlarni adolat prinsiplari asosida kechishi, davlat va siyosiy hokimiyatni inson manfaatlariga xizmat qilishi, jamiyat hayotining ravnaq topishi uchun shart-sharoitlar yaratadigan, bu jarayonga o'z uslublarini taklif etadigan fanga aylandi [7].

Bugungi kunda siyosatshunos kadrlarni tayyorlash bir qator oliy ta'lim muassasalarida olib borilmoqda, ular orasida TDSHU, JIDU, O'zMU, O'DJTU, TDYUU va boshqalarni qayd etishimiz mumkin [8].

Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy fanlarni rivojlantirish uchun bir qator ishlar amalga oshirildi. Lekin, ba'zi ekspertlar fikricha, hozirgi kunda siyosiy fanning rivojlanishida muayyan kamchiliklar mavjud. O'zbekistonda siyosatshunoslikning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan omillar va holatlar quyidagilar:

1. Tadqiqot markazlari hamda o'quv muassasalari o'rtasida aloqalar yaxshi yo'lga qo'yilmagan.
2. O'zbekistonning siyosiy tizimi va siyosiy qarorlar qabul qilishda haligacha politologlarning ishtiroki yetarli emas.
3. O'zbek tilidagi ijtimoiy-siyosiy fanlarga oid adabiyotlarning tanqisligi va ularni moliyalashtirish tizimining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi.
4. "Ijtimoiy-siyosiy fanlar" kafedralari qoshida tadqiqot markazlarining mavjud emasligi. Siyosatshunoslikning akademik fan sifatidagi yangiligini hisobga olsa, siyosatshunoslik ta'limida uzoq muddatli pedagogik, didaktik an'analar mavjud emas. Boshqa tomondan, o'qituvchi pedagoglar kamdan-kam hollarda siyosat sohasida professional tajribaga ega bo'lib, bu "sxolastik" an'anani va ta'limni xaqiqiy tajribadan ajratishni takrorlaydi.
5. Ekspertlarning siyosiy bilimlariga talabning pastligi.
6. Tadqiqotlarni moliyalashtirishning yetarli darajada emasligi, siyosiy amaliyotda ekspertlar va ilmiy ma'lumotlarning yetishmasligi, siyosatshunoslarni kasbiy tayyorlash tizimining nomukammalligi.
7. Davlatning siyosatshunoslik hamjamiyatiga extiyotkorona munosabati xam g'apb nazariyalari va konsepsiyalarining ichki siyosatshunoslikning shakllanishiga sezilarli ta'siri bilan bog'lik. O'zaro begonalashuv natijasida fan va ta'lim muhitida muxolifat kayfiyatining kuchayishi xavfi mavjud.
8. Siyosatshunoslarning professional darajasi pastligi akademik fandan tashqarida pul topish ehtiyoji mavjudligi bilan izohlanadi, buning natijasida ularda manbalar bilan ishlashga, o'z ustida ishlab malakasini oshirishga imkon va vaqt yetishmasli.

Bu borada ekspertlar mazkur kamchiliklarni bartaraf etishda quyidagi holatlarga e'tibor qaratishini muhim deb ta'kidlashadi:

Birinchidan, mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy fanlar bo'yicha kadrlarni tayyorlaydigan Oliy o'quv yurtlari integratsiyalashuviga etiborni qaratish lozim. Ushbu jarayon oliy o'quv yurtlari orasida sog'lom raqobatning vujudga kelishiga xizmat qiladi hamda professor-o'qituvchilar saviyasini oshiradi.

Ikkinchidan, talabalarda hamda professor-o'qituvchilarda tahliliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun kafedralar qoshida empirik va analitik tadqiqot markazlarining faoliyat olib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Uchinchidan, O'zbekiston siyosatshunosligining rivojlanishi, birinchi navbatda, o'z an'analari va ilmiy maktablariga, ichki siyosiy amaliyotni tahlil qilishga, xorijiy tajribani tanqidiy qayta ko'rib



chiqishga asoslanishi kerak. Siyosatshunoslikda milliy o'ziga xoslik, ilmiy bilim va siyosiy sohada tajriba yetarli emas.

To'rtinchidan, bugungi kunda o'zbek siyosatshunosligining istiqbolli vazifasi o'zbek sivilizatsiyasining asl xarakterini ilmiy asoslashni, shuningdek, O'zbekistonning siyosiy suverenitetining obyektiv zarurligini ishlab chiqish bo'lishi mumkin. Bunday xolda, o'zbek siyosatshunosligining maqsadi O'zbekistonning tarixiy, etnik-konfessional, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, geografik, geosiyosiy va boshqa xususiyatlariga mos keladigan mamlakat siyosiy rivojlanishining o'ziga xos modelini topish.

Beshinchidan, siyosiy tilning rasmiy versiyasi hali ham O'zbekiston siyosiy tajribasining o'ziga xosligi va jahon siyosiy rivojlanishini idrok etishning izchil yo'nalishi ishlab chiqilmagan. Institutsional darajada ilmiy va ekspert ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashning yangi modelini, ijtimoiy va siyosiy bilimlarning g'arb manbalari bilan almashish jarayonlarini birlashtirish zarur. Xorijiy ijtimoiy-siyosiy fikrni tizimli ravishda tanqidiy tahlil qilish talab etiladi. Ilmiy tilda aytganda, siyosiy boshqaruvning milliy yo'naltirilgan modellarini ishlab chiqish, ichki va tashqi siyosatni shakllantirish va amalga oshirish buyicha davlat boshqaruvi organlarining surovi - muayyan ilmiy mavzular buyicha davlat me'yoriy xujjati akademik jamoatchilik uchun muximdir [9].

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, ijtimoiy-siyosiy fanlar sohasida mutaxassislarni tayyorlash O'zbekistonda huquqiy-demokratik davlat qurishning muhim omili hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni ham ta'kidlash joizki, ushbu fanning ahamiyati, uni o'rganish va bu bilimlarni fuqarolar o'rtasida joriy etish muhimligini ta'kidlash kerak. Shu munosabat bilan, fransuz zabon katolik faylasufi, yozuvchi, siyosatchi va diplomat, siyosiy konservatizm asoschisi Jozef de Maistrening "Har bir xalq o'ziga munosib hukumatga yega" degan gapini e'tirof etish zarur. [10], ya'ni. davlat boshqaruvining sifati fuqarolarning siyosiy madaniyati va faolligi darajasiga bog'liq bo'lib, bu ilm-fanni o'rganish va fuqarolar o'rtasida tarqatish muhimligini yana bir bor isbotlaydi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Политология: учебник для студентов вузов/ под редакцией В.К.Батурина. – 4-е изд. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2014. С.3
2. Политология / <https://studfile.net/preview/7605524/page:2/>
3. А. Файзуллаев. В защиту политологии/ <https://www.gazeta.uz/ru/2017/06/09/political-science/>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2019 yil 29 yanvardagi PQ4139-sonli qarori <https://lex.uz/ru/docs/-4182353>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2020 yil 26 apreldagi PQ-468-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/4791086>
6. Caramani, Daniele (ed.). 2017. Comparative politics. Oxford: Oxford University Press.
7. М.Қирғизбоев. Сийосатшунослик фанининг таълим ва амалиёт уйғунлиги асосида ривожланиш масалалари / Ўзбекистонда политологиянинг янги босқичи. Тошкент, 2022.
8. Р.Назаров. Новая наука: как выросла политология в Узбекистане / <https://ia-centr.ru/experts/ravshan-nazarov/novaya-nauka-kak-vyroslo-politologiya-v-uzbekistane/>



9. Ф. Хикматов. Сиёсатшунослик фанининг таълим ва амалиёт уйғунлиги асосида ривожланиш масалалари / Ўзбекистонда политологиянинг янги босқичи. Тошкент, 2022.
10. Цитаты и о политике / https://ruxpert.ru/Цитаты_о_политике



MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING XAVFSIZLIK BORASIDA AQSH VA XITOIY BILAN HAMKORLIGI

SADIBAQOSEV HABIBULLO

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zXIA

Annotatsiya: Yirik davlatlar chorrahasida joylashgan Markaziy Osiyo murakkab xavfsizlik holatiga duch kelmoqda. Ushbu maqola Markaziy Osiyo davlatlari va ikki asosiy tashqi aktorlar: AQSH va Xitoy o'rtasida rivojlanayotgan xavfsizlik sohasidagi hamkorlik dinamikasini ko'rib chiqadi. Har ikki davlat xavfsizlik sohasida hamkorlikning turli shakllarida ishtirok etayotgan bo'lsa-da, ularning turli geosiyosiy manfaatlari va strategik ustuvorliklari Markaziy Osiyo davlatlari uchun o'ziga xos muvozanat harakatini yaratadi. Tarixan terrorizmga qarshi kurashish va mintaqaviy barqarorlikni rag'batlantirishga e'tibor qaratgan AQSH harbiy mashg'ulotlar, o'quv dasturlari va narkotik vositalarga qarshi kurash tashabbuslarini o'z ichiga olgan ko'p tomonlamali yondashuvni qo'llagan. Biroq Afg'onistondan AQSH qo'shinlarining olib chiqib ketilishi va Xitoyning ta'siri kuchayishi bilan AQShning Markaziy Osiyodagi ishtiroki shubha ostiga olindi. Xitoy esa mintaqadagi strategik manfaatlarini mustahkamlash uchun iqtisodiy qudratini va ortib borayotgan harbiy salohiyatini ishga solmoqda. Uning "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi infratuzilmani rivojlantirish va iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan bo'lsa, uning xavfsizlik sohasidagi hamkorligi qo'shma harbiy mashg'ulotlar, terrorizmga qarshi hamkorlik va qurol savdosini o'z ichiga oladi. Markaziy Osiyo davlatlari bu murakkab manzarada AQSH va Xitoy bilan munosabatlarini muvozanatlashtirib boradi. Xitoy sarmoyalaridan iqtisodiy foyda ko'rish bilan birga, mintaqaviy tahdidlarni bartaraf etish uchun AQSH bilan xavfsizlik sohasidagi hamkorlikka ham ustuvor ahamiyat berishadi. Ushbu nozik muvozanat harakati ikkala tomon uchun ham qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlari bilan AQSH va Xitoy o'rtasidagi xavfsizlik sohasidagi hamkorlikning asosiy omillari, jumladan, geosiyosiy omillar, iqtisodiy rag'batlar va xavfsizlik muammolari, shuningdek, rivojlanayotgan dinamika taqdim etayotgan xavf va imkoniyatlarni o'rganib, Markaziy Osiyoda uzoq muddatli barqarorlik va hamkorlikni ta'minlash uchun muvozanatli ishtirok va mintaqaviy muloqot zarurligi tahlil qilinadi.

Tayanch so'z va iboralar: Markaziy Osiyo, xavfsizlik sohasida hamkorlik, AQSH, Xitoy, geosiyosat, "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi, mintaqaviy barqarorlik, manfaatlar.

Аннотация: Расположенная на стратегическом стыке великих держав, ландшафт безопасности Центральной Азии весьма своеобразен. Анализируя недавнюю динамику, в этой статье обсуждается сотрудничество в области безопасности между государствами Центральной Азии и двумя основными внешними заинтересованными сторонами: Соединенными Штатами Америки и Китаем. Хотя обе основные державы предпринимают различные формы сотрудничества в области безопасности, их геостратегические интересы и стратегические приоритеты порождают различные балансирующие действия для государств Центральной Азии.